

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**MONUMENT ASSOCIATED WITH THE NAME OF HAZRAT SULTAN (KITAB DISTRICT)*****Sanabar Djuraeva****Doctor of History**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan****Gulchekhra Rakhimova****Doctor of History**Polytechnic University of Turin**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Hazrat Sultan, a great repentance, a great resurrection

Received: 04.01.25

Accepted: 06.01.25

Published: 08.01.25

Abstract: This article analyzes the history and current status of the shrine named after Hazrati Sultan, as well as the role of this sacred site in the development of pilgrimage tourism, based on scientific literature.

HAZRAT SULTON NOMI BILAN BOG‘LIQ QADAMJO (KITOB TUMANI)***Sanabar Djuraeva****Tarix fanlari doktori**O‘zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O‘zbekiston****Gulchekhra Rakhimova****Tarix fanlari doktori**Turin politeknika universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Hazrati Sulton, Ko‘hi tavba, Avg‘oyi qiyomat

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrati Sulton nomi bilan bog‘liq ziyoratgoh tarixi va bugungi kundagi holati hamda ushbu muqaddas qadamjoning ziyorat turizmi rivojidagi o‘rnii ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilib yoritilgan.

ПАМЯТНИК, СВЯЗАННЫЙ С ИМЕНЕМ ХАЗРата СУЛТАНА (РАЙОН КИТАБ)**Санабар Джураева**

Доктор исторических наук

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

Гульчехра Рахимова

Доктор исторических наук

Политехнический университет Турина

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ**Ключевые слова:** Хазрат Султан, великолепное покаяние, великое воскрешение**Аннотация:** В статье на основе научной литературы анализируется история и современное состояние святыни имени Хазрата Султана, а также роль этого священного места в развитии паломнического туризма.

Kitob tumanining shimoliy-sharqida Hazrati Sulton tog‘i joylashgan, u dengiz sathidan 4135 metr baland bo‘lib, Zarafshon va Hisor tog‘ tizmalarining ayrilish joyida G‘ova cho‘qqisiga tutashgan [1]. Bu joy Hazrati Sulton nomi bilan bog‘liq qadamjo bo‘lib, mahalliy aholi uni “Ko‘hi tavba”, “Avg‘oyi qiyomat” deb ataydi [2:37].

Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda, balki undan oldin ham mahalliy so‘g‘dlar (zardushtiyilar) Hazrat Sulton tog‘ining ustiga chiqib quyoshga qarab topinganlar. O‘sha paytda bu qoya nomi tarixga “So‘g‘d qoyasi” nomi bilan kiritilgan. Uning ustida otashparastlar qurbanliklar qilishgan. Hozirgacha tarashlab yo‘nilgan tosh supada qurbanlik qiluvchi qon yalog‘ saqlanib qolgan. Tog‘ ustidan quyosh qiynalib chiqqandek, 2-3 marotaba pastga-yuqoriga tebranib chiqadi. Shu payt qurbanlik so‘yilgan. Ushbu joyda dastlab mo‘jazgina qasr ham bo‘lgan, keyinchalik buzib tashlangan [3:132].

680 yili Xalifa Muoviya vafotidan keyin Iroqda ummaviylarga qarshi harakat boshlanadi. Qufa shialari Imom Husaynni o‘zlarining imomi deb Qufaga tashrif qiladi va Xalifa Yazidga qarshi qo‘zg‘olonga bosh bo‘lishni so‘raydilar. Imom Husayn jangchilarini bilan Makkadan Qufaga yetgan vaqtida Karbalo dashtida xalifalikning yetti ming qo‘smini qarshi chiqadi. 680 yili 10 oktabrda Imom Husayn (r.a.)ni Sinan ibn Avs ibn Amir an-Naxa’iy nayza sanchib o‘ldirgan edi... Sinan o‘zi otdan tushib kallani tanadan uzdi. Bu mislsiz jinoyat hijriy 61 yil juma kuni bo‘ldi. O‘sha kuni ashuro kuniga to‘g‘ri kelgan edi [4:129]. Imom Husayn Karbolo dashtida dafn etilgan. Bu joy shialarning muqaddas ziyyaratgohi hisoblanadi.

Rivoyatda Imom Husayn jangda halok bo‘lgach, boshi tanadan judo qilinib, Yazidga keltiriladi. Qo‘sini boshlig‘i Xo‘ja Dovud Damashqiy Imom Husaynning bosha o‘rniga o‘z o‘g‘li Husaynning boshini qoldirib kallani olib qochadi. G‘ova cho‘qqisiga olib keladi. Shu yerda dafn etadi. Cho‘qqiga yetib borgach sherigi Mubil ota ham shahid bo‘ladi [1]. Hazrati Sulton tog‘ining baland cho‘qqisi 70-

80 kishi namoz o‘qishi uchun toshni tarashlab qo‘ygandek tekis, supaning g‘or, ya’ni qibla tomonida qabr bo‘lib, unga Imom Husaynning boshi qo‘yilganligi aytildi [5:34].

O‘z qa’rida katta tarixni berkitgan Hazrati Sulton tog‘i hanuzgacha o‘zining ulug‘ligini saqlagan holda uzoq uzoqlardan salobat bilan ko‘zga tashlanib turadi. Tog‘ning ulug‘ligiga salobat beruvchi hodisalardan yana biri, ertalab quyosh chiqishi vaqtida tog‘ning eng baland cho‘qqisidan ufqqa qaralganda quyoshning ikki uch marotaba pastga yuqoriga tushib chiqishidir. Oddiy ko‘z bilan qaralganda qiynalib chiqayotgandek ko‘rinadi. Aslida buning sababi yerning o‘z o‘qi atrofida 3-6° tebranishidir. Kun botish vaqtida toqqa o‘t ketgandek qizarib ko‘rinadi. Tog‘ning salobatini oshiruvchi hodisalardan yana biri, u yerdagi Qabzaxona qishlog‘ining eski o‘rnidan qaralganda, quyosh tog‘ ustiga kelganda qoyaning odam boshi shaklida ko‘rinishidir [2:38]. Hazrati Sulton cho‘qqisi qadimgi davrdan hozirgacha o‘zining sirli va jozibaliligi bilan ziyoratchilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

“Musibatnoma” kitobida keltirilishicha, Imom Husaynning boshi Qarg‘a va Masturalar tomonidan olib qochilgan bo‘lsa, Hazrati Sulgon tarixida esa Xo‘ja Dovud Damashqiy tomonidan olib qochiladi. Har ikki muhibi xonadonlarning biri Karbaloga qochsa, biri Hisorga qochadi.

Qadimiy tarixlarda podsholar, nomdor kishilar, polvonlarning qabrlari sir tutilgan. Dafi qilingan joylari bir necha joyda ko‘rsatilgan. Bu ishlar dushmanlar mayitni o‘g‘irlab azob bermasin degan maqsadda qilingan. Imom Husaynning Muborak boshlarini dunyo kezdirib, har joyga “dafn etilishi” va shu bilan bog‘liq tarixlarni yaratilishi yuqoridagi fikrlardan holi emas. Imom Husaynning boshlarini qolgan joylarga ham xuddi shunday yo‘l bilan “keltirilishi” Yazidning qo‘shinini chalg‘itish uchun muhiblar tashkil etgan tadbirlardan biri bo‘lsa ajab emas. Karbaloda Imom Muhammadi Hanifa, akalarining boshlarini tanlariga vosil qilishda shaxsan ishtirok etishlari, haqiqiy bosh o‘z tanalariga ya’ni, Karbaloda deb tushinish mumkin. Masalani yana bir qiziq tomoni shundaki, Muqanna qo‘zg‘oloni 774-783 yillar orasida bo‘lgan bo‘lsa, Imom Husayn salkam 94 yil oldin dashti Karbaloda shahid bo‘lganlar [3:141-142]. Shuning uchun Hazrati Sulton tarixi keyinroq yozilib, ushbu joy ziyoratgohga aylantirilgan deyish mumkin. Hazrati Sulton tog‘i qadamjo hisoblanadi.

Shuningdek, Kitob tumanining tog‘ hududidagi Hazrati Bashir qishlog‘ida Hazrati Sulton Said Ahmad (1368-1464) nomi bilan bog‘liq arxeologik yodgorlik (XV asr) mavjud bo‘lib, u “Shohak” degan manzil bilan bog‘lanib, bu yo‘l Hazrati Bashir ziyoratgohiga, ikkinchisi Samarqandga olib boradi [6]. Hazrati Sulton tog‘ining siri hanuzgacha insoniyatni lol qoldirib keladi. Tog‘ Kitob tumanining shimoliy sharqida joylashgan bo‘lib, balandligi jihatdan Respublikada 5 nuqta hisoblanadi. Dengiz sathidan 4135 metr baland bo‘lib, Kitob shahridan 82 kilometr shimoli sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Zarafshon va Hisor tog‘ tizimlarining ayrilish joyidagi G‘ova cho‘qqisiga tutash [6].

Respublikaning turli hududlaridan ko‘plab ziyoratchilar, mahalliy aholi kelib bu joyni ziyorat qilishadi. Tog‘ qadimdan ham ulug‘ joy hisoblanib, mahalliy aholi uni “Ko‘hi tavba” ya’ni “tavba qilganlarning gunohini kuydiruvchi” deb ataydi. Tog‘ havosi juda sovuq bo‘lganligi sababli, yoz faslida 20 iyuldan 20 avgustgacha ziyoratchilar Hazrat Sulton ziyoratgohiga borishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Dala tadqiqotlari. – Qashqadaryo viloyati Kitob tumani. 2024 yil 10 avgust.
2. Parmonov O., Berdiyev A. Kitob tumani haqida lavhalar. – T.: Fan, 1996.
3. Berdiyev A. Sayohat va ziyoratnoma. Sirli Hazrati Sulton tog‘i haqida. – Toshkent: Tafakkur chamanzori, 2023.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol-nashr, 2016.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. Ikkinchchi juz. – Toshkent: Hilol-nashr, 2018.
6. Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi ma’lumoti. – Qarshi shahri. 2024 yil 8 avgust.
7. Djuraeva, S., & Akramova, F. (2024). " DOR UT-TILOVAT" AND" DOR US-SAODAT" ARCHITECTURAL MONUMENTS IN SHAHRISABZ. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 4(09), 14-19.
8. Djuraeva, S. (2019). SACRED PLACES IN SURKHAN OASIS AND POPULATION’S RELIGIOUS LIFE. Theoretical & Applied Science, (7), 125-130.
9. Djuraeva, S. (2020). Shrines Of The Karshi Oasis. The American Journal of Applied sciences, 2(11), 12-15.
10. Djuraeva, S. (2020). Ceremonies And Actions Performed By The Population At The Pilgrimage. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(11), 1-6.